

OILADA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINI AMALGA OSHIRISH

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Zulfiqorova Olmaxon

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzluksiz manaviy tarbiya Konsepsiyasida keltirilgan oilada manaviyat tarbiyani shakllantirish masalalari. Bolani homila davridan boshlab uzluksiy ta'lim hamda tarbiyaga tayyorlab borish yo'llari. Oila va jamiyat hamkorligini yo'lga qo'yish va bolalarni to'g'ri tarbiya qilish usullari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlari.** Konsepsiya, oila, tarbiya, ta'lim, homila, bola, davr, bosqich, yo'l.*

Bugungi kunda jamiyatimizda hamda butun dunyoda tarbiya asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham tarbiyaga alohida e'tibor berilganda. Va tarbiyani doimiy yo'lga qo'yish hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun mamlakatimizda tarbiya konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:¹

Biz konsepsiyada quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.

Konsepsiyaning maqsadiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak — yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Konsepsiyani o'rganish jarayonida biz quyidagi asosiy to'rtta bosqichni qamrab olganini ko'rishimiz mumkin ya'ni:

birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich: maktabgacha ta'lim 3–6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich: umumiy o'rta ta'lim (7 (6)-10 yoshgacha boshlang'ich sinf, 11–17 (18) yosh);

to'rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar.

Biz ushbu to'rt bosqichning birinchisiga to'xtalib o'tamiz.

Albatta tarbiya haqida gap ketganda, avvalo farzand tarbiyalashda uni ona qornidan ya'ni homila davridan boshlashi zarur degan fikirlar aytib o'tiladi.

Ma'naviy shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiya tizimlari asosiy omillar xisoblanadi. Bu tizimlarning uzviy bog'liqligi, biri ikkinchisini taqozo qilishi ma'lum haqiqatlardir. Birortasidagi kemtik va kamchiliklar mavjudligi shaxs fazilatlaridagi ayrim qusurlarga olib keladi. Ta'lim mukammal bo'lsa-ku, tarbiya etarli bo'lmasa, yoki aksincha xolda ham baribir ko'zlangan maqsadga etish mushkul bo'lib qolaveradi. Hozirgi kunda yoshlarimiz (faqat ular emas)dagi ma'naviyat, ahloq to'g'risidagi bilimlar doirasi etarli darajada bo'lsada, xayotda ularga amal qilmayotganlari, mensimayotganlari va hatto to'g'ridan-to'g'ri inkor qilayotganlari holatlarini uchratishimiz mumkin. Bu fikr kontsepsiyada ham ifodalangan: "Vatanga sadoqat, burch va ma'suliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu

esa xar yili mustaqil xayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning xayotda o'z o'rinlarini topishda bir qator muammolar keltirib chiqarmoqda"²

Bu holatlarni ko'rib turar ekanmiz biz bunday vaziyatlarda qanday yo'l tutishimiz zarur hisoblanadi. Biz yosh qizlarimizning yangi xayotga kirib kelganda, duch keladigan muammolarini hal qilish maslalarini ko'rib chiqadigan bo'lsa. Avvalo dunyoning ba'zi rivojlangan mamlakatlariga bir nazar solsak va boshqa mamlakatlarimiz yangi hayot ostonasiga qadam qoygan qizlariga yartilgan keng imkoniyatlar, erkinlik, ochiq munosabat o'rnatilganligi va eng muhimi homiladorlik davrida ularga beriladigan e'tiborni e'tirof etish loyiqdir. Biz ham o'z mamlakatimizda hamiladorlik davridagi ayollarimiz uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlariga egamiz Buni qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin.

- Ijtimoiy oila institutlarini tashkil qilish
- Yosh oilalarga keng imkoniyatlar yaratish
- Ayollar maslahat mazkazini tashkil qilish
- Yordamga muhtoj va psixologiyasida buzilish sodir bo'lgan ayollarga ko'mak markazini ochish hamda reabilitatsiya qilish
- Onalar maktabini ochish
- Homilador ayollar kulibini tashkil etish yo'llari orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishimiz mumkin.

Ushbu bosqichning ikkinchi davriga toxtaladigan bo'lsak

Oila ijtimoiy institut sifatida ma'naviy qo'rg'on bo'lishi bilan birga yosh avlod ta'lim-tarbiyasining ilk maskanidir. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk xayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan mezon va qarashlari – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mexr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Xar bir inson tug'ilgandan boshlab muayyan ijtimoiy muhitda, jumladan oilada o'sib-unib, ta'lim va tarbiya olib shaxs sifatida shakllanib boradi insonga ijtimoiy mavjudot sifatida onglilik ne'mati berilgan. Bolalarda imkoniyat darajasida

berilgan anglash qobiliyati asta sekin atrof-voqelikni tushunish, tasavvur qilish va bilish boskichlari orqali muayyan tafakkurga aylanib boradi. Bu jarayon ijtimoiy muhit va voqelikni anglash bilan ayni paytda xar bir insonning o'z-o'zini anglashi, o'z "meniga" ega bo'lib borishi jarayoni hamdir. Inson o'z xoxishidan qat'iy nazar muayyan bir ijtimoiy birlik (oilalar, millatlar, davlatlar, jamiyatlar, sosial-demografik guruxlar va boshqalar) vakili sifatida shakllanib boradi. Shu ma'noda shaxs insonning ijtimoiylashuvi maxsulidir.

Yuqorida sanab o'tilganlardan "Ijtimoiy oilalar institutlarini tashkil qilish" va "Onalar maktabini ochish" orqali biz onalarimiz homiladorlik davridan keyin hamda farzandlarimizni tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan davr oralig'idagi muhitni to'g'ri belgilab olinsa farzandning ma'naviy tarbiyasi ham to'g'ri yo'naltiriladi.

-ijtimoiy oilalar institutlari qanday yordam beradi? Yani tashkil qilingandan keyin, homiladorlik davrida va farzand dunyoga kelgandan keyin nimalar qilish zarur. Oilalar qurishdan oldingi maslahatlar, yoshlarni tayyorlash kabi vazifalar belgilanishi.

-Onalar maktabida tug'ruqdan keyin farzandni qanday parvarish qilish kerak, farzandni qanday tarbiya qilish kerak, oilalarda qanday muhit yaratish kerak, yosh onalarga alohida mashg'ulot treninglar, onalarga farzandlari bilan birgalikda oilalarda sog'lom tarbiya muhitini yaratishga yordam beruvchi treninglar va metodlar haqiqatda bilim va ko'nikma berish hamda ularni himoya qilish kabi masalalarni vazifa qilib o'rnatish ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishda tutgan o'rnini quyidagilar orqali ifodalashimiz mumkin:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoni har bir millatning o'z ona tilida yaratilganligi tufayli ushbu tilning naqadar jozibali ekanligini namoyon etadi. Bu esa shaxsda o'z ona tiliga bepisand bo'lmaslik tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya har bir millatning o'zligini namoyon etadi. Chunki, ular bevosita shu millatning ruxiyati asosida shakllangandir.

3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya har bir shaxsni o'z xalqi va vatani tarixini sevishtga, o'z ajdodlari bilan har lahzada faxrlanishga undaydi.

4. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida shakllangan har bir mutaxassis kelajakning mohir quruvchilari bo'lishga undaydi, ularni yod g'oyalar qamrab ololmaydi. Demak, uzluksiz ma'naviy tarbiya ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, ulug'lash va rivojlantirishga harakat qiluvchi insonni tarbiyalashdan iboratdir. Shuningdek, bu boradagi ishlarimizning pirovard maqsadi imon e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyo qarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarori // <https://lex.uz/docs/46768392>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 27-mart, No 62 (7842)
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. – Toshkent.: 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 456 b.
5. Барулин В.С. Социальная философия. Учебник. –М.: Гранд. 1999